

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparati
xodimlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa
me‘yoriy-huquqiy hujjatlarini o‘rganish soatlari to‘g‘risida ma‘lumot**

Tadbirda ma'ruzachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi O‘RQ-440-son Qonuni haqida tushuntirish berildi.

Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilning faoliyatini tartibga solishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (bundan buyon matnda Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil deb yuritiladi) mansabdor shaxs bo‘lib, u tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini, mazkur huquqlar va qonuniy manfaatlarga davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar (bundan buyon matnda davlat organlari deb yuritiladi) tomonidan rioya etilishini ta'minlaydi. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi va o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, mustaqillik, adolatparvarlik, insonparvarlik, oshkoralik, ochiqlik, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligidan iboratdir.

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil tomonidan davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslariga yozma ravishda tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga doir qonun hujjatlarining buzilishiga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi ogohlantirish va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga doir qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi taqdimnoma kiritiladi.

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil daxlsizlik huquqidan foydalanadi va u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni majburiy keltirishga, ushlab turishga, shuningdek uning shaxsiy buyumlari, yuki, transporti, turar joyi va xizmat xonasini, aloqa vositalari va hujjatlarini ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakilga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Shuningdek, yig‘ilgan ishtirokchilar tomonidan o‘zlarini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha ma'ruzachiga savollar berishdi.